

“ROHATI DIL” DOSTONIDA AYOLLAR OBRAZI

Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna

Ichki ishlar vazirligi

Buxoro akademik litseyi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Huvaydoning “Rohati dil” dostonida ayollar obrazining badiiy talqini yoritilgan. Adibning ayollar obrazini yaratishda o'ziga xos ushbu, hikoyatlar tahlili orqali ma'naviy-axloqiy masalalar yoritilganligi tahlil qilingan. Huvaydo ifodalamoqchi bo'lgan g'oyalar Qur'on oyatlari orqali dalillangan.*

Kalit so'zlar: *Didaktika, ayollar obrazi, Qur'on, hikoyat, komil inson.*

Adabiyot – bu hayot ko'zgusi. Unda insonlar, ularning kechinmalari, orzu-umidlari, jamiyatdagi o'rni va muammolari badiiy aks etadi. Xususan, mumtoz adabiyotimizda ayol obrazlari turli qirralari bilan namoyon bo'lgan. “Rohati dil” asari ham bu borada alohida o'ringa ega bo'lib, unda ayollar obraziga chuqur e'tibor qaratilgan.

“Rohati dil” asarida ayollar obrazi har tomonlama yoritilgan: ular – mehr-oqibat sohibasi, fidoyi ona, sadoqatli yor, aql va ma'rifat egasi. Shu bilan birga, ba'zida ularning og'ir taqdiri orqali muallif o'quvchini chuqur fikrlashga, ijtimoiy adolat haqida o'ylashga undaydi. Bu asar orqali biz nafaqat o'tmishdagi ayollar hayotini, balki hozirgi kun uchun ham dolzarb bo'lgan muammolarni ko'ra olamiz. “Rohati dil”dagi hikoyalar mavzu va ma'naviy-axloqiy masalalarni yoritishda turlicha. Ona tushida bevaqt vafot etgan qizini do'zaxda azob chekayotganini ko'radi:

“Onasi ul xotunni tush ko'rubdur,

Qizining boshida o'tlar yonubdur,

Bo'lubdur ham aning og'zi to'la qon,

Qo'li zanjiri otash ila paymon".

("Rohati dil". –B.66).

(Ona tushida qizini ko'radi, Qizi olovda yonadi. Lablarida qizil qon bor, qo'llari qizg'ish zanjir bilan kishanlangan).

Qizi onasidan Rasululloh payg'ambarimizning oldiga borib, uning nomidan eriga nisbatan qilgan shafqatsiz xatti-harakatlari uchun kechirim so'rashini so'raydi. Rasululloh undan xotinining o'ziga qilingan haqoratlarini kechirishini talab qiladi. U xotinini kechirishni rad etadi:

"Mening holim xarob etgan o'shal zan,

Xudo bezor-u siz bezor ondin.

Mening hargiz oningdek xotunum yo'q.

Aningdek xotun aslo ko'rganim yo'q

("Rohati dil". –B 67).

(Bu ayol meni ko'p xarob qildi, undan xudo ham, men ham bezor. Menga bunday xotin kerak emas, bunga o'xshash xotun ko'rmadim)

Qur'oni karimda xotinning eri oldida qilgan shavqatsizliklari, ya'ni hurmatsizlik, itoatsizlik, haqorat yoki mehirsiz muomalasi bevosita "shavqatsizlik" so'zi bilan emas, "nushooz" (itoatsizlik, isyonkorlik) tushunchasi orqali muhokama qilinadi. Bu holat oilaviy muvozanatni buzuvchi muhim muammo sifatida qaraladi. Qur'on bunday holatda erkak va ayol har ikkalasini ham o'zaro adolat va tinchlikka chorlaydi. "Niso" surasining 34–35-oyatlarida shunday deyiladi:

"Erkaklar ayollar ustidan qo'imdirlar, chunki Alloh birini boshqasidan ustun qilgan va erkaklar o'z molidan (ayolga) sarf qiladilar. Bas, solih ayollar itoatli bo'lur, Alloh (ularga) bergan (oilaviy haqiqatlarni) asrab turuvchi bo'lur. Agar (ayollar orasida) isyonkorlik (nushooz)dan qo'rqsangiz, u holda ularga pand-nasihat qiling, (to'g'ri kelmasa) ularni yotoqda yolg'iz qoldiring, (bu ham foyda bermasa) ularni yengil uring. Agar sizga itoat etsalar, ularni (yana) ezishga yo'l qidirmang. Albatta, Alloh yuksak va buyukdir."

Bu oyatga ko'ra, agar ayol eriga nisbatan nushooz, ya'ni isyon, bepisandlik, hurmatsizlik yoki shavqatsizlik qilsa, erkak avvalo, nasihat qilish, keyin vaqtincha

yotoqni ajratish, oxirgi chora sifatida esa yengil jismoniy ogohlantirish (faqat zo'ravonliksiz) yo'liga o'tishi mumkin. Bu oyat zo'ravonlikni emas, balki ijtimoiy tartibni saqlash va muammoni bosqichma-bosqich hal qilishni o'rgatadi.

“Agar ularning ajralishidan qo'rqsangiz, u holda erkak tomonidan bir vositachi va ayol tomonidan bir vositachi yuboring. Ular (chin dildan) tuzatmoqchi bo'lsalar, Alloh ularni yarashtiradi...” (“Niso” surasi, 35-oyat)¹. Bu oyatga binoan, agar ayolning shavqatsizligi (nushoozi) nikohni buzish darajasiga yetsa, ikki tomonlama vositachilar orqali muammoni hal qilish yo'li tavsiya qilinadi.

Payg'ambar o'sha xotinning eriga Olloh uchun, anbiyolar hurmati va men uchun xotinini kechirishini so'raydi. O'sha xotinning eri payg'ambarning so'zlarini rad etolmay, xotinini kechiradi. Shundan keyin ona tushida qizi jannatda ekanligini ko'radi va tinchlanadi. Huvaydo bu hikoyati orqali jamiyatdagi oilaviy hayot qiyinchiliklarini tasvirlab, qiz timsolida ilg'or g'oyaviy qarashlarni umumlashtirgan holda oila a'zolarini tinch va osoyishta yashashga, bir-birini hurmat qilishga chaqiradi:

“Onasiga dedi: zinhor-u zinhor,

Mening holimni aytgil har xotun bor,

Alar mendin eshitib ibrat olsin,

Ba sad zinhor erini rozi qilsun”.

(“Rohati dil”. –B. 68)

Huvaydo obrazlar yaratishda yangi masallar, hikoyalar yaratib, ularni taniqli yoki afsonaviy shaxslar bilan bog'laydi, ular nomidan gapiradi, buning natijasida u jamiyatga yanada kuchli ta'sir ko'rsatadi:

“Qilibdur hazrat Sulaymon rivoyat,

Payg'ambardin o'shal koni malohat,

Chog'ir ichub, yana sotquchilarni,

Ato-anosini og'ritquchilarni,

Xudoning rahmatidin benasibdur”.

¹Qur'oni karim. (Alouddin Mansur tarjimasi). –T.: Movorounnahr, 2019. –B.142.

(Rohati dil. –B.69).

Mastlik oqibatida odam juda ko'p bema'ni ishlarni qiladi: ota-onasini, xotinini, bolalarini haqorat qiladi, tinchini buzadi, do'stlar haqida janjal qiladi, sog'lig'iga zarar yetkazadi. Muxtasar qilib aytganda, har qanday kutilmagan ko'ngilsiz hodisalar bo'lishi mumkin. Muallif shuni hisobga olib, sharob sotuvchilarni ham qoralaydi. U giyohvandlarni ham tanqid qiladi:

“Kishiningki ishi bo'lsa chog'irkor,

Ota-onasini ham qilsa ozor.

Anga qiz bermangiz zinhor-zinhor,

Aningdek odamdin Tangri bezor”.

(Rohati dil. –B.69)

(Agar odam giyohvand yoki ichkilikboz bo'lsa, ota-onasini xafa qilsa, hech qanday holatda u uchun qizingdan voz kechma, Xudo bundaylarni qabul qilmaydi).

Shoir Azroil va Fir'avn o'rtasidagi suhbat orqali jamiyatda o'lim farishtasi Azroildan ham dahshatliroq odamlar borligini ko'rsatadi. Bu odamlar orasida bechoralarning mulkini tortib oladigan zolim hukmdor, takabbur olimlar bor deydi:

“Birisi podshohi zolim o'lgay,

Ikkinchisi takabbur olim o'lgay.

Ikki mo'min urushib bir-birina

Adovatliq qilubon tutsa gina,

Bo'lur joyi tamug'da, dedi Ahmad,

Muningdek aytdilar Sultoni Sarmad”.

(Rohati dil.–B. 72)

V. Zohidov Huvaydo yaratgan shunga o'xshash masal va hikoyatlarga baho berar ekan, “diniy ohanglar muallif uchun qopqoq bo'lib xizmat qiladi, buning natijasida u payg'ambarlar nomidan ijobiy g'oyalarni amalga oshiradi va shu bilan ezgu g'oyalarni targ'ib qiladi, yomon odamlarni fosh qilishga intiladi”.² O'z mohiyatiga ko'ra, shoir yaratgan Tangri siymosi odamlardan, eng avvalo, poklikni, halollikni, adolatni talab qiladi. O'zi ter to'kmay, o'zgalar hisobidan foyda

² А.Худойбердиев. Жизнь и творчества Ходжаназара Хувайдо. –дисс.кан.наук. –С.163.

ko'ruvchi, umrini rohat-farog'at bilan o'tkazadiganlarni jannatga kirgizmaydi, namozi, ro'zasi uchun savob bermaydi:

“Riyo birla namoz-u ro'za qilsa,
Aning qilg'on namoz-u ro'zasin Haq,
Qiyomatga deyin qilg'ay muallaq.
Qiyomat kun olib yuzig'a urg'ay,
Maloyiklar azobi saxti qilg'ay”.

(“Rohati dil”. –B.113)

(Riyokorlik bilan bajarilgan ibodatlar (namoz va ro'za) Alloh huzurida qabul qilinmaydi. Qiyomatda bu amallar insonning yuzi tomon uloqtiriladi, bu esa ulamolar ta'biri bilan sharmandalikdir. Bundan tashqari, farishtalar uni azoblaydi)

Bu bayt insonni xolislik, ya'ni faqat Olloh rizosi uchun ibodat qilishga undaydi.

“**Rohati dil**” asarida ayollar obrazi **adabiy, axloqiy, ijtimoiy va estetik jihatdan** chuqur talqin etilgan. Bu asar Sharq mumtoz adabiyotining namunasi bo'lib, unda ayollar obrazi go'zallik, sadoqat, muhabbat, sabr-toqat va ma'naviy yuksaklik timsoli sifatida gavdalanadi.

“Rohati dil”dagi har bir hikoya **ma'rifiy va axloqiy mazmunga** ega bo'lib, ular orqali muallif: **halollik, sabr-toqat, sadoqat, tavoze, ilohiy muhabbat va insoniylik** kabi qadriyatlarni targ'ib qiladi. Bu hikoyalar kitobxonda **ma'naviy tarbiya** beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Asardagi hikoyalar ko'pincha **tasavvufiy qarashlar** bilan sug'orilgan. Ular: dunyo nafsi va shahvatiga berilmaslik, ruhiy poklanish, Ollohga yaqinlashish yo'lidagi sinovlar, nafsni yengish kabi ma'nolarni o'zida mujassam etadi. Bu jihatlarda hikoyalar **odamning ichki olami bilan ishlaydi** va o'quvchini ruhiy kamolot sari yetaklaydi. Huvaydo hikoyalar orqali **badiiy-falsafiy ta'limot** beradi. Hikoyalarning syujeti sodda bo'lsa-da, ularning har biri **hayotiy saboq** beradi. Ko'pincha ular **xotima qismida ibratli yakun** bilan tugaydi. Bu esa hikoyalarni **axloqiy pand-nasihat** vositasiga aylantiradi. Hikoyalarda **timsol va ramzlar** orqali chuqur ma'naviy g'oyalar ochib beriladi. Masalan:

Ayol obrazlari – go‘zallik va ilohiy muhabbat timsoli,

Yo‘l – haqiqat sari safar,

Dard – ruhiy tozalanish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, “Rohati dil” asaridagi hikoyalar o‘zbek adabiyoti va tasavvufiy-falsafiy tafakkurda ma’naviy tarbiyani chuqur ifoda qiladi, axloqiy qadriyatlarni badiiy shaklda o‘rgatadi, ruhiy poklanish va komillikka da’vat etadi, o‘quvchini hayotiy haqiqatlar ustida fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qur’oni karim. (Alouddin Mansur tarjimasi). –T.: Movorounnahr, 2019. –B.142.
2. А.Худойбердиев. Жизнь и творчества Ходжаназара Хувайдо. – дисс.кан.наук. –С.163.
3. Huvaydo. Devon. (Nashrga tayyorlovchi: Q.Ro‘zimatzoda). –T.: Yangi asr avlodi, 2017. –B.9.
4. Huvaydo. Rohati dil. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
5. Zaripova, D. (2023). Khojanazar huvaido is a major representative of uzbek classical literature. *Science and innovation*, 2(b1), 124-126
6. Todjixodjayev M. O‘zbek adabiyoti namunalari Martin Xartman tarjimasi va talqinida. –T.: Bayoz, 2016. –B.130.
7. Bakhtiorovna, Z. D. (2023). HISTORY OF THE HUVAYDO’S WORKS STUDY. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 9(10), 4-7.